

**ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI SHAXSINING
PSIXOLOGIK TUZILISHI: DIAGNOSTIKA VA KASBIY
SALOHIYATNI OSHIRISH MASALALARI**

Raximboyeva Muhtaram Oybek qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta'lim

3-o'quv kursi 331-o'quv guruhi kursanti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ichki ishlar organlari xodimlarining kasbiy faoliyatidagi psixodiagnostika amaliyoti tahlil qilinib, sohadagi mavjud muammolar va ularning yechimlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda xodimlarning individual-psixologik va professional salohiyatini oshirishga qaratilgan zamonaviy metodlar taqdim etilgan. Shuningdek, maqolada so'nggi yillarda qo'llanilayotgan diagnostika vositalarining samaradorligi baholanib, o'zgaruvchan ijtimoiy-siyosiy sharoitda xodimlarning ruhiy barqarorligini ta'minlash masalalari asoslab beriladi. Maqola yakunida ichki ishlar tizimida psixologik xizmat faoliyatini takomillashtirishga doir ilmiy-amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Ichki ishlar organlari xodimlari, temperament, xarakter, emotsional barqarorlik, kognitiv jarayonlar, ijtimoiy va kasbiy motivatsiya, psixodiagnostika, professional salohiyat.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется практика психодиагностики сотрудников органов внутренних дел, выявляющая основные проблемы и предлагающая современные методы, направленные на повышение индивидуального психолого-профессионального потенциала. Проводится анализ диагностического инструментария, применяемого в последние годы, и обосновывается важность сохранения психологической устойчивости сотрудников в условиях динамично меняющейся социальной среды. Результаты исследования ориентированы на выработку научно-практических рекомендаций по совершенствованию психологического обеспечения деятельности ОВД.

Ключевые слова: сотрудники органов внутренних дел, темперамент, характер, эмоциональная устойчивость, когнитивные процессы, социальная и профессиональная мотивация, психодиагностика, профессиональный потенциал.

Bugungi kunda ichki ishlar organlari xodimlari zimmasiga jamiyatda tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kabi o'ta mas'uliyatli

vazifalar yuklangan. Mazkur faoliyat o‘z mohiyatiga ko‘ra, doimiy psixologik bosim, yuqori darajadagi ehtiyotkorlik va kuchli ruhiy barqarorlikni talab etadi. Shu bois, xodimlarning kasbiy salohiyati nafaqat ularning jismoniy tayyorgarligi yoki huquqiy bilimlari, balki shaxsning ruhiy-psixologik tuzilishi bilan ham chambarchas bog‘liqligi dolzarb masalaga aylanmoqda.

Ichki ishlar organlari xodimlari faoliyati ijtimoiy muvozanatni saqlash, o‘zgaruvchan vaziyatlarga tezkor moslashish hamda keskin stress sharoitida to‘g‘ri qaror qabul qilish (irodaviy salohiyat) kabi xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Xodimlarda uchraydigan psixologik nuqsonlar yoki emotsional beqarorlik nafaqat xizmat intizomiga, balki jamoat xavfsizligiga ham jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin. Shu sababli, tizimda xodimlarni individual psixodiagnostika metodlari orqali muntazam baholash, ularning ruhiy salomatligini muhofaza qilish va manzilli psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish mazkur tadqiqotning ustuvor yo‘nalishini belgilab beradi.

Ichki ishlar organlari xodimlari – jamiyat xavfsizligini ta‘minlash, huquq-tartibotni mustahkamlash va fuqarolarning osoyishta hayotini kafolatlashda markaziy bo‘g‘in hisoblanuvchi, yuksak ijtimoiy mas‘uliyatli kasb egalaridir. Ularning kasbiy faoliyati o‘ta murakkab sharoitlarda kechib, xodimdan nafaqat jismoniy chidamlilikni, balki yuqori darajadagi stressga bardoshlilik va mustahkam ruhiy tayyorgarlikni taqozo etadi.

Shu bois, ichki ishlar organlari xodimlarining psixologik holati va ruhiy barqarorligi ularning xizmat vazifalarini samarali va sifatli bajarishida hal qiluvchi omil (determinant) bo‘lib xizmat qiladi.

Birinchidan, ushbu soha vakillari doimiy ravishda xavfli va ziddiyatli vaziyatlarga duch keladilar. Jinoyatchilik bilan bog‘liq holatlar, favqulodda vaziyatlar, zo‘ravonlik sahnalari yoki og‘ir ruhiy holatdagi insonlar bilan muloqot qilish ulardan kuchli psixologik barqarorlikni talab qiladi. Bunday sharoitlarda stress, xavotir, ruhiy charchoq va hatto professional kuyish (emotsional burnout) holatlari ko‘p uchraydi. Agar bu holatlar vaqtida aniqlanmasa va psixologik yordam ko‘rsatilmasa, bu nafaqat xodimning sog‘ligiga, balki xizmat sifatiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

Ikkinchidan, ichki ishlar xodimlari psixologik portretida iroda kuchi, hissiyotlarni boshqara olish, tez va to‘g‘ri qaror qabul qilish, muomala madaniyati va insonparvarlik muhim o‘rin tutadi. Xodimning psixologik tayyorgarligi, shuningdek, jamoada ishlay olish qobiliyati, rahbariyat bilan samarali muloqot o‘rnatish va vaziyatni to‘g‘ri tahlil qila olishda namoyon bo‘ladi.

Uchinchidan, so‘nggi yillarda ichki ishlar organlari tizimida xodimlar salomatligini, ruhiy holatini yaxshilashga qaratilgan choralar ko‘rilmog‘da. Jumladan, psixologik treninglar, davriy psixodiagnostika, motivatsion suhbatlar, dam olish va sog‘lomlashtirish dasturlari yo‘lga qo‘yilgan. Bu kabi yondashuvlar xodimlarning

psixologik chidamliligini oshirish, xizmatda ijobiy muhit yaratish va professionallikni mustahkamlashga xizmat qiladi.¹

Shu bilan birga, ichki ishlar xodimlari psixologiyasi nafaqat individual holatda, balki tizim miqyosida yondashishni talab qiladi. Rahbarlarning psixologik savodxonligi, tashkilot ichidagi psixologik muhit, xizmat jadvalining to'g'ri tashkil etilishi va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlari – bularning barchasi xodimning ruhiy barqarorligiga bevosita ta'sir etadi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining psixologik tuzilishi bugungi kunda chuqur tadqiq etilishi lozim bo'lgan ustuvor masalalardan biri hisoblanadi. Xodim shaxsining psixologik qiyofasi bevosita quyidagi fundamental omillar bilan belgilanadi:

- **Huquqiy maqom va mas'uliyat:** Ichki ishlar organi xodimi, eng avvalo, davlat xizmatchisi bo'lib, unga muayyan vakolatlar bilan bir qatorda qat'iy majburiyatlar ham yuklatilgan. Davlat hokimiyati tizimida ijro etuvchi hokimiyat vakili sifatida faoliyat yuritishi uning ruhiyatida yuksak mas'uliyat va intizomni talab etadi.

- **Ijtimoiy munosabatlar tizimi:** Xodim va fuqaro o'rtasidagi munosabatlar nafaqat qonunchilik, balki milliy qadriyatlar hamda umumaninsoniy axloq normalarining uyg'unligiga asoslanadi. Bu esa xodimdan muloqot jarayonida yuksak psixologik tayyorgarlikni taqozo qiladi.

- **Kasbiy madaniyat va islohotlar:** Sohadagi kasbiy madaniyat qonun bilan tartibga solingan. Xususan, Davlatimiz rahbarining PQ-10-sonli qarorida belgilangan "ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish" g'oyasi xodimning psixologik dunyoqarashini tubdan o'zgartirishni nazarda tutadi.

- **Faoliyat mezonlari:** Xodimning har bir xatti-harakati qonuniylik, adolat va axloqiy tamoyillar asosida shakllanishi uning ichki psixologik barqarorligini belgilovchi asosiy mezondir.

Alohida ta'kidlash joizki, ichki ishlar organlari xodimlarining bilish (**kognitiv**) faoliyati boshqa kasb egalarinikidan o'zining tezkorligi, keng qamrovliligi, mantiqiy izchilligi hamda xizmat siri va maxfiylikka asoslanganligi bilan tubdan farq qiladi.

Ichki ishlar organlari xodimlarining psixologik tuzilmasi ularning kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. IIO xodimlari o'z xizmat vazifalarini bajarish jarayonida har kuni turli toifadagi shaxslar, jumladan, og'ir jinoyat sodir etgan kimsalar, ruhiy tushkunlikka tushgan fuqarolar hamda bevosita hayotga xavf soluvchi tahdidli vaziyatlar bilan to'qnash keladilar.

Bunday ekstremal sharoitlarda xodimning psixofiziologik holati va psixologik tayyorgarligi doimiy barqarorlikni talab etadi. Xodim shaxsining psixologik tuzilmasi o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan quyidagi tarkibiy komponentlardan tashkil topadi:

¹ Kasbiy psixologiya. Ma'ruzalar kursi. R.X. Dushanov, Yo.A. Farfiyev

Temperament-Ichki ishlar xodimlarining temperament turi ularning xizmatdagi xatti-harakatlariga bevosita ta'sir qiladi. Masalan, sangvinik tipdagi xodimlar odatda ijtimoiy faol, chaqqon va stressli vaziyatlarga bardoshli bo'lishadi. Melanxoliklar esa chuqur tahlilga moyil bo'lsalar-da, tez charchashlari yoki ichki bosimni og'ir kechirishlari mumkin. Shu sababli, xodimning temperamentini aniqlash va unga mos vazifalarni belgilash xizmat samaradorligini oshiradi.

Xarakter-Xarakter xodimning doimiy xulq-atvori, o'zini tutish madaniyati va xizmatga yondashuvida o'z ifodasini topadi. Halollik, intizomlilik, qat'iyatlilik, vatanparvarlik, mas'uliyat hissi kabi sifatlar ichki ishlar xodimlarining xarakterida ustun bo'lishi zarur. Ayniqsa, rahbarlik lavozimlarida faoliyat yurituvchi xodimlarda irodaviy sifatning kuchli bo'lishi jamoani boshqarishda muhim omildir.

Emotsional barqarorlik-Ichki ishlar organlari xodimlari ko'pincha salbiy emotsiyalar, stressli vaziyatlar va favqulodda holatlar bilan shug'ullanadi. Bunday sharoitda emotsional barqarorlik – muhim psixologik sifat hisoblanadi. Hissiyotlarni boshqara olish, o'zini tuta bilish, sabr-toqatli bo'lish, zo'riqishlarga bardosh bera olish – bu xodimning professional faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Aks holda, impulsivlik, asabiylik yoki ruhiy tushkunlik xizmatda salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Kognitiv (aqliy) jarayonlar-Ichki ishlar xodimining tafakkuri, diqqatni jamlay olish qobiliyati, xotira, muammoli vaziyatlarda tez fikrlash va to'g'ri qaror qabul qilish malakalari yuqori bo'lishi kerak. Xususan, tezkor vaziyatlarda, masalan, jamoat tartibini tiklash yoki jinoyatchini qo'lga olish jarayonida to'g'ri harakat qilish, mavjud axborotni tezda tahlil etish katta ahamiyatga ega.

Ijtimoiy va kasbiy motivatsiya-Ichki ishlar xodimlarining psixologik tuzilmasida motivatsion omillar ham katta o'rin tutadi. O'z kasbiga bo'lgan muhabbat, xizmat burchini ado etish istagi, fuqarolarga yordam berish tuyg'usi, adolatga intilish kabi motivlar xodimni ruhiy jihatdan bardavom qiladi. Ayniqsa, ijtimoiy adolatga ishonch, professionallik va o'ziga nisbatan talabchanlik yuksak xizmat ko'rsatkichlarini ta'minlaydi.

Ijtimoiy muhit va jamoaviy munosabatlar-Ichki ishlar xodimining psixologik tuzilishida jamoada ishlay olish, jamoaviy ruhda harakat qilish, o'zaro hurmat va ishonch muhim o'rin tutadi. Tashkilotdagi psixologik iqlim, rahbariyat bilan muloqot sifati, safdoshlar bilan bo'lgan hamkorlik – bularning barchasi xodim ruhiyatiga ta'sir qiladi. Ijobiy muhit, qo'llab-quvvatlovchi rahbarlar va jamoaviy birdamlik xodimlarning ruhiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Stressga bardoshlilik va professional kuyishning oldini olish-Uzoq muddatli psixologik bosim, ishdagi kuchli talablar va doimiy zo'riqish ichki ishlar xodimlarida "professional kuyish sindromi"ga olib kelishi mumkin. Bu holat emotsional holdan toyish, ruhiy charchash, befarqlik va xizmatga bo'lgan motivatsiyaning pasayishi bilan

namoyon bo‘ladi. Bu kabi holatlarning oldini olish uchun psixoprofilaktika, xizmatdan tashqari dam olish, ruhiy engillikni ta‘minlovchi mashg‘ulotlar muhimdir.

Xulosa

O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ichki ishlar organlari xodimlarining psixodiagnostik ko‘rsatkichlarini tizimli tahlil qilish — sohadagi kadrlar salohiyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarishning fundamental asosidir. Izlanishlar jarayonida xodimlarning stressga chidamliligi, ekstremal vaziyatlarda qaror qabul qilish strategiyalari hamda intellektual moslashuvchanlik darajasi bilan bog‘liq tizimli muammolar aniqlandi.

An‘anaviy metodikalardan farqli o‘laroq, taklif etilayotgan zamonaviy diagnostik yondashuvlar xodimlarning professional barqarorligini ta‘minlashda samarali mexanizm bo‘lib xizmat qiladi. Ichki ishlar tizimida psixodiagnostika faoliyatini institutsional darajada kuchaytirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish — huquq-tartibot organlarining xalqchil professional tuzilmaga aylanishini ta‘minlovchi eng muhim omildir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O‘zbekiston", 2023.
2. “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ–407-son Qonun. 2016-yil 16-sentyabr.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-yanvardagi PQ–10-son qarori.
4. Dushanov R.X. Kasbiy psixologiya. – Toshkent: IIV Akademiyasi nashriyoti, 2014.
5. Karimov A.A. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar nashriyoti, 2020.
6. Dushanov R.X., Farfiyev Yo.A. Kasbiy psixologiya. Ma‘ruzalar kursi. – Toshkent, 2021.